

## REFLECTION OF FOLKLORE-SPECIFIC LINGUISTIC AND POETIC MEANS IN KADIRI'S WORKS

**Urak Pazilovich LAFASOV**

Candidate of Philological Sciences, Associate Professor  
Tashkent State University of Oriental Studies  
Tashkent, Uzbekistan

## QODIRIY ASARLARIDA FOLKLORGA XOS LINGVOPOETIK VOSITALARNING AKS ETISHI

**Urak Pazilovich LAFASOV**

Filologiya fanlari nomzodi, dotsent  
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti  
Toshkent, O'zbekiston

## ОТРАЖЕНИЕ ФОЛЬКЛОРНЫХ ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В ТВОРЧЕСТВЕ КАДЫРИ

**Урак Пазирович ЛАФАСОВ**

Кандидат филологических наук, доцент  
Ташкентский государственный университет востоковедения  
Ташкент, Узбекистан [lafas1963@gmail.com](mailto:lafas1963@gmail.com) ORCID ID 0009-0002-0557-3476

**For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Lafasov U.P. Qodiriy asarlarida folklorga xos lingvopoetik vositalarning aks etishi. — 2025. — 11-jild, № 1 (60). — B. 202-218.

<https://doi.org/10.36078/1742367036>

**Received:** December 25, 2024


**Accepted:** February 17, 2025

**Published:** February 20, 2025

Copyright © 2025 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



**Abstract.** The article states that while many people exist in the world, only a few can boast of creating outstanding examples of national romanticism. Abdullah Kadiri, the founder of Uzbek novelists, sought inspiration for his work for a long time. He drew on folk epics and oral folk art, creating novels filled with vivid imagery and fascinating narratives. Kadiri utilized elements of national folklore as linguistic and poetic tools to shape his original works. He actively incorporated *saj*, a form of rhymed prose, into his writing. It is said that he was inspired by the beautiful imagery found in folk epics to create unparalleled examples of *saja*. He skillfully incorporated folk phrases and applied Uzbek *saj* to the melodies of folk songs, creating new forms. The wordsmith Abdullah Kadiri composed *sajas* similar to prayers. Abdulla Qadiri used the linguistic poetics of proverbs in his works to describe the shortcomings and virtues of people's character. It is noted that the writer used the linguistic and poetic device of *askia* to ridicule human shortcomings and injustice. Issues such as the inability to see and performance criteria were identified.

The writer also explored themes of love and conflict in a lyrical manner and form of songs. Using words in a figurative sense, he creates a special poetic style inherent only to him.

**Keywords:** Abdullah Kadiri; national novel; folklore; linguistic and poetic means; national novel; fundamental source; folk epic; Ahor national novel; *saj*; proverb; idiom; song; *askia*; applause.

**Annotatsiya.** Annotatsiya. Maqolada jahonda millatlarning ko'pligi, ularning orasida milliy romanchiligi mukammal dalillar negizida

asoslab berilgan xalqlar esa sanoqli ekanligi haqida ma'lumot berilgan. O'zbek milliy romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy romanlarini yozish uchun uzoq vaqt poydevor manba qidirgan va xalq dostonlarini topganligi, voqealarni bayon qilish hamda obrazlarni tasvirlashda xalq og'zaki ijodi namunalari tayanganligi izohlangan. Adib ohoriy (original) milliy romanlarini yaratishda milliy folklor namunalari lingvopoetik vosita sifatida zamonaviy roman janriga olib kirgan. U o'z asarlarida saj' (qofiyali nasr)dan unumli foydalangan. Adib xalq dostonlaridagi go'zal tasvirlardan ilhomlangan holda o'zbekona saj'ning beqiyos namunalari yaratganligi, lahjalaridagi xalqona jumalardan mohirlik bilan foydalanganligi, o'zbekona saj'ni xalq qo'shiqlari ohangiga monand shaklda qo'llaganligi, saj'ning yangi, ohoriy namunalari ijod qilganligi bayon qilingan. So'z ustasi duolarga monand saj'larni ijod qilganligi aytilgan. Abdulla Qodiriy maqol lingvopoetik vositasini ishlatib, odamlarning fe'l-atvoridagi kamchiliklar va afzalliklarni yoritib berganligi e'tirof etilgan. Adib askiya lingvopoetik vositasi orqali insoniy qusur va adolatsizlikni bo'rttirib ko'rsatganligi qayd etilgan. Yozuvchi, shuningdek, muhabbat va ziddiyat mavzularini lirik uslubda hamda qo'shiq shaklida tadqiq qilgan. U so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash orqali faqat o'ziga xos bo'lgan maxsus poetik uslub yaratgan.

**Kalit so'zlar:** Abdulla Qodiriy; milliy roman; folklor; lingvopoetik vositalar; milliy romanchiligi; poydevor manba; xalq dostonlari; ohoriy milliy roman; saj; maqol; matal; qo'shiq; askiya; alqishlar.

**Аннотация.** В статье говорится, что, хотя в мире существует множество народов, лишь немногие могут похвастаться созданием выдающихся примеров национального романтизма. Абдулла Кадыри, основатель узбекской новеллистики, долго искал вдохновение для своего творчества. Он черпал его в народном эпосе и устном народном творчестве, создавая романы, наполненные яркими образами и увлекательным повествованием. Кадыри использовал элементы национального фольклора в качестве лингвопоэтических инструментов для формирования своих оригинальных произведений. Он активно включал садж, форму рифмованной прозы, в свои произведения. Он был вдохновлен прекрасными образами, найденными в эпосе, для создания непревзойденных примеров саджа. Он искусно включал народные выражения и применял узбекский садж к мелодиям народных песен, создавая новые формы. Мастер слова Абдулла Кадыри сочинял саджи, похожие на молитвы. Он использовал лингвопоэтику пословиц в своих произведениях, чтобы описать недостатки и достоинства характера людей. Отмечается, что писатель использовал лингвопоэтический прием аския для высмеивания человеческих недостатков и несправедливости. Писатель также исследовал темы любви и конфликта в лирической манере и в форме песен. Используя слова в переносном смысле, он создает особый поэтический стиль, присущий только ему.

**Ключевые слова:** Абдулла Кадыри; национальный роман; фольклор; лингвопоэтические средства; народный эпос; оригинальный национальный роман; садж; пословица; поговорка; песня; аския; идиомы.

## Kirish

Jahonda millatlarning soni juda ko'p, ammo ularning orasida milliy romanchiligi mukammal dalillar asosida asoslab berilgan xalqlar soni

sanoqlidir. O'zbek milliy romanchiligining asoschisi [Qodiriy Xondamir. 2024: 15], yozuvchi Abdulla Qodiriy o'zbek [Lafasov 2024: 293] (o'zbek) milliy romanlarini ijod qilish uchun juda uzoq vaqt izlangan. Adib o'z romanlari uchun milliy adabiyotimizdan poydevor manba qidirgan. U uzoq mulohazalardan so'ng xalq dostonlarining asosli manba ekanligini topgan. So'z ustasi voqealarni bayon qilish hamda obrazlarni tasvirlashda, xalq og'zaki ijodi namunalariga tayangan. Bu bilan birinchidan, ohoriy milliy asarlar yaratib, romanchilik sohasidagi taqlidchilikning oldini olgan va unga ko'chirmachi tamg'asini yopishtirmoqchi bo'lgan g'alamislarni badnom qilgan. Ikkinchidan, o'zbek xalqining bebaho, cheksiz badiiy ifodalarga boy milliy folklore [Imomov, Mirzayev, Sarimsoqov & Safarov 1990: 84] namunalarini lingvopoetik vosita sifatida yangi, zamonaviy adabiy roman janriga olib kirgan.

O'zbekning xalqona sochmasi(nasri)da qadimiy badiiy san'at namunasi bo'lgan saj [O'zbek tilining izohli lug'ati 2007: 420] (qofiyali nasr) muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shu badiiy vosita dostonchiligimizda juda keng qo'llangan. Saj [Abdurauf Fitrat 2006, 65-bet] dostonlarimizdagi o'zbekona tasvir usuli bo'lib, badiiy san'at [Lafasov 2021: 4] sifatida xalq og'zaki ijodimizda ko'p uchraydi.

Abdulla Qodiriy qo'llagan lingvopoetik vositalardan biri **saj** hisoblanadi. Julqunboy (Abdulla Qodiriy)ning har bir asarida xalq hayotini, uning tarixi, etnografiyasi, urf-odatlarini, milliy xususiyatlarini yaxshi bilgan holda ijod qilganligi sezilib turadi [Mirzayev 1975: 44]. Darhaqiqat, yozuvchi o'zi yoritgan har bir voqelikning badiiy to'qima emasligini asoslash uchun tinimsiz izlangan [Qodiriy Habibulla 2005: 123], mashaqqatli mehnat qilgan.

Adib dostonlarimizdagi go'zal tasvirlardan ilhomlangan holda, o'zbekona sajning beqiyos namunalarini ijod qilgan. M.: "*Oy kabi yuzlar, kulib boqishlar, cho'chib qochishlar... Uff*" [Abdulla Qodiriy 1994: 24]. Yozuvchi romanlaridagi saj badiiy san'ati mazmun ifodasiga chuqur singdirilgan. Abdulla Qodiriy asarlarida sajning latofatini yana bir karra namoyon etgan [Is'hoqov 2006: 52]. M.: *Huvalboriy... ko'zimizning nuri, belimizning quvvati, hayotimizning mevasi o'g'limiz mulla Otabekka yetib ma'lum va ravshan bo'lg'ayki...* [Abdulla Qodiriy 1994: 35]

So'z ustasi ijodiy asos sifatida tayangan xalq dostonlarimiz ikki lahjada yaratilgan. U asl saj manbasi bo'lgan sof o'zbek [Polivanov 1933: 20] (qipchoq) va aralash o'zbek(o'g'uz) lahjalaridagi xalqona jumladan mohirlik bilan foydalangan. M.: *Yoshi ellidan oshqan, kulgusi ichiga to'lib toshqan bir xotinni duvurdan chiqib, o'ziga qarab yurganini ko'rgandan keyin donxonag'a kirdi* [Abdulla Qodiriy 1994: 51]. Abdulla Qodiriy o'zbekona sajni xalq qo'shiqlari ohangiga monand shaklda qo'llagan. M.: *Uning fikri anuv qorong'uliklar ichida suzma ham ko'zi chechak va sabzalar tomoshasida, dimog'i hidlar istishmomida, qulog'i qushlar nag'masida bo'ladi* [Abdulla Qodiriy 1994: 138—139].

Yozuvchi ona tili [Asotirlar va rivoyatlar 1990: 41] mizni mukammal bilgani, boshqa tillarni chuqur o'zlashtirgani bois sajning yangi, ohoriy namunalarini ijod qilgan. M.: "*Umidim yulduzi, orzum chechagi, hayotim tiragi Kumushimga!*" [Abdulla Qodiriy 1994: 177].

Adib kashf qilgan saj namunalari badiiy jihatdan juda yuksak bo'lib, ohangdorligi, jozibadorligi bilan kitobxonni hayratga soladi. M.: *Oy yuzlik*

*rafiqam, qunduz qoshlik ma'shuqam Kumush xonimga!* [Abdulla Qodiriy 1994: 253].

Abdulla Qodiriy xalq ijodiyotini, og'zaki nutqimizda insonlarga yaxshilik istab qilinadigan duolarni ko'p bilgani uchun shunga o'xshash ifodalarni saj shaklida bergan. M.: *Onhazratimning davatlari kam, o'zlarida g'am, ko'zlarida nam, dushmanlarida dam, qadrlarida xam bo'lmasin... Shahzodamning boshlarida baxt, ostlarida taxt o'ynab, yosh umrlariga ajali bevaqt yetmasin...* [Abdulla Qodiriy 1994: 253].

Yozuvchi hajviy tasvirni qiyomiga yetkazgan ijodkor sifatida kinoya va tagma'nolar asosida sajning xalqona ifodalariga yangicha uslubiy shakl bera olgan. M.: *Soniy, arzi bandaligimiz shulki, biz, darbadari devona, aqlu hushdin begona, xalq tilida afsona, elkezar g'aribona* qullaringiz dardu alam yutar erdik, qalamravingizning bir chetidan o'tar erdik. *Dedilarkim, bu diyorning xoqoni, Iskandari soni, zaru zavar koni, elning oshu noni, ya'ni saxovatda Hotam, qahri kelsa motam...* *g'urabo(g'ariblar) yoridir va yana sizlardek bozori kasod darbadarlar, enasi ko'chada tuqqan bepadarlarga ham ehsoni joriydir* [Abdulla Qodiriy 1994: 523].

So'z ustasi ona tilimizning og'zaki shaklidagi noyob unsurlarni qo'llagan holda sajning o'zgacha namunalarini o'zi ijod qilgan. M.: *Bitta toqchadag'i cheti uchkan, qoni qochqan uch to'rtta piyola va bir qora qumg'onni, ikkinchi toqchadag'i umrida yuvinib ko'rmagan qora mis barkashni, ...* [Abdulla Qodiriy 1994: 175].

Ma'lumki, har qanday ijod hosilasi, eng avvalo, o'zi yaratilgan davrni va aks ettirilayotgan zamonani, odamlar hayoti va taqdirini qay darajada to'laonli tasvirlaganligi bilan belgilanadi [Rahimjonov 2003: 37]. Adib o'sha davrdagi siyosiy tuzum, dinning ta'siri va mavjud vaziyat tasvirini ham saj orqali ochib bergan. M.: *Xon musulmon, bek musulmon, xalq musulmon, buning ustiga yurish-turish ham musulmoncha, hukmlar ham shari'atcha edi. O'g'irliq qilg'an uchun qo'l kesiladir va yo dorg'a osiladir. Zoni bilan zoniylar ham peshtoqdan tashlanadirlar, ichkulik ichkan uchun qirq darra uriladir* [Abdulla Qodiriy 1994: 213–214].

Abdulla Qodiriy hayotiy va ijodiy tajribasi asosida o'zi kashf etgan o'xshatishlar [Is'hoqov Yoqubjon, 2006: 84] asosida xalqona ohoriy sajlar yaratib o'quvchini hayratda qoldirgan. M.: *Endi ko'rsam miltiqning o'qidek, pushti gulning to'qidek kelinim bor ekan...* [Abdulla Qodiriy 1994: 325].

Yozuvchi tasvirdagi o'zbekona betakror o'xshatishlar, yangicha badiiy ifodalarni sajda bayon qilib, kitobxonning ko'z oldiga qahramonning jonli suratini keltira olgan. M.: *O'zi qanday yigit deb so'ra: surma qo'yg'andek ohu ko'zi bor, qizil olmadek tarang yuzi bor, endi chiqib kelgan ko'k maysa mo'ylabi, Roziya xonimnikidan ham nafisroq qalam qoshi... Ustiga kiygan beqasam to'ni o'ziga shunday yarashqanki, biz qizlar ixtiyorsiz unga qarashdiq,* [Abdulla Qodiriy 1994: 504].

Adib salbiy qahramonlarning ko'rinishini ham o'ziga xos xalqona ko'chimlar [Hojiyev Azim 2002: 55] asosida saj orqali tasvirlagan. M.: *Ul yerdan bichib olg'andek pak-pakana, burni yuzi bilan barobar deyarlik tep-tekis, ko'zi qoqqan qoziq o'rnidek chup-chuqur, og'zi qulog'i bilan qoshiq solishar darajada juda katta, yuzi qirq yillik og'riqlarnikidek sap-*

*sariq*, qirq besh yoshlar chamasida bir xotin edi [Abdulla Qodiriy 1994: 168].

Soʻz ustasi qahramonlarning surat va siyrat mutanosibligi alohida eʼtiborga olgan holda tasvirda sajdan foydalangan. M.: Yigirma ikki yoshlar chamasida boʻlgʻan bu yigit *sariq tanlik*, ukkining koʻzidek chaqchayib, oʻynab va yonib turgʻan *qizil koʻzlik*, yuziga parchinlangandek *yuza* (puchugʻ) *burunlik*, manglayi qancha tashqarigʻa oʻsib *chiqqʻan* boʻlsa, yuzi oʻshancha ichkariga *ketkan*, qisqasi vaqtsizroq yaratilib *qolgʻan* bir maxluq edi [Abdulla Qodiriy 1994: 174].

Abdulla Qodiriy xalq dostonlaridagi yor uchun qaltis janglarga kirishish voqealaridan ilhomlangan holda Otabekning raqiblariga qarshi tanho kurashgan tasvirini saj bilan bayon qilgan. M.: *Chunki raqib bilan dildorning uyi orqasida tanho olishmoq*, yor oyogʻi ostida qonlik tuproqqa *qorishmoq* — uning uchun juda lazzatlik va shoirona tuyila boshlagʻan edi [Abdulla Qodiriy 1994: 245].

Yozuvchi kutilmagan zarbadan oʻta darajada ezilgan, azoblangan Kumushning holatini saj yordamida tasvirlagan. M.: Kumushning bu daqiqadagʻi holini qalam bilan chizib koʻrsatish, albatta, mumkin emas edi. Ul *titrar* edi, *koʻkarar* edi, *toʻlgʻanar* edi [Abdulla Qodiriy 1994: 259].

Adib asarda tasvirdagi qahramon istagi, hayajonli lahzalarni ifodalash uchun ham sajdan foydalangan. M.: ... bu kun boʻlmasa erta — chimmati *qoʻlida*, paranjisi *ustida*, sarigʻmi, qorami atlas koʻynagi *egnida* darbozadan kirib kelgandek va oʻpkalangandek... [Abdulla Qodiriy 1994: 282].

Soʻz ustasi oʻta sinchkov boʻlgani bois oʻzbek ayollarining kiyinishi va yurish-turishini har doim kuzatgan va ushbu tasvirni berishda ham saj usulini ishlatgan. M.: Gulshan darbozadan ichkari kirgandan keyin, parangi ostida bosilib tartibsizlangan sochlarini *tuzatdi*, chang oʻlturgan niliy rang tovor koʻylagining etaklarini *qoqti*, qoʻlidagʻi yoqut va zumurad koʻzlik oltin uzuklarini toʻgʻrilab *taqti* va shundan soʻng zinalardan yuqorigʻa qarab *chiqa boshladi* [Abdulla Qodiriy 1994: 484].

Abdulla Qodiriy xalq qiziqchilik sanʼatining nozik sirlarini yaxshi bilgan [Sobirov Oxunjon. 1975: 36]. Oʻzi ham tabiatan jiddiy kulgi va askiyaga ragʻbatli inson boʻlgani sababli hajviy tasvirda ham sajni mohirlik bilan qoʻllagan. M.: Kishi xongʻa qarshi turgʻan holda sallasini tuzatdi, soqol-murtini *siladi*, toʻnini qoqib, oldini *oʻradi*, soʻngra xotirjamʻ rukuʻga *bordi* [Abdulla Qodiriy 1994: 522].

Yozuvchi oʻzbek qizlarining diniy va milliy liboslari, ularning goʻzalligi, kiyinishdagi oʻziga xos didini qogʻozga tushirish borasida ham sajni qoʻllagan. M.: Qip-qizargʻan holda Kumush koʻrindi: paranjisi *qoʻlida*, qora atlas koʻynak *egnida*, zangor latta mursak *ustida*, oq shohi roʻymol *boshida* edi [Abdulla Qodiriy 1994: 311].

Adib oʻzbek ayollari nutqidagi milliy kinoya-qochirimga alohida ahamiyat bergan va notiqlikka aloqador bu noyob topilmalarni ham sajda bayon qilgan. M.: Yoʻqsa, meni koʻrar edingiz, koʻrgingiz kelmaganda ham boshqalar sizni *koʻrar* edilar, *toʻyar* edilar [Abdulla Qodiriy 1994: 299].

Soʻz ustasi xalqimiz orasida yashaydigan, aslida boshqa millat boʻlgan, tiynati oʻzbek boʻlmagan ichiqora, gʻalamis va ablah

dindorlarning qora qilmishlarini ham saj orqali ifodalagan. M.: *Qochirish bo'lsa, qochirdiq va lekin qordan qutulib yomg'urg'a tutildiq*, mulla Abdurahmon [Abdulla Qodiriy 1994: 597].

Yozuvchi o'zbek onalarining, jumladan, aslzoda xonimlarning urfodat borasida o'ktamligi, udumlar amaliyotida so'zga botirligi kabi jihatlarni ham sajda tasvirlagan. M.: *Bir bugina emas, qiz chiqaraturg'an, o'g'ul uylantiradirg'an, sunnat to'yi qiladirg'an* xotinlar o'z to'ylarini O'zbek oyim kengashidan tashqari jo'nata olmas edilar [Abdulla Qodiriy 1994: 129].

Adib o'zbeklardagi yoshi ulug', yuqori tabaqaga mansub xonimlarning kundalik yumush va holatlarini ham saj usuli orqali bergan. M.: *...qish kunlari tanchadan par yostiqa suyalib, yoz kunlari ayvonning to'riga yoslanib* Hasanalining xotini bo'lg'an Oybodoqqa, cho'ri qiz Hanifaga xamirni achitmaslikni, palovni qirmoch oldirmaslikni tanbihlabkina o'lturar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 130].

Abdulla Qodiriy ruhiy [Qo'shjonov 1992: 68] musulmon bo'lgan o'kuzbek (o'zbek)lar har doim o'z e'tiqodiga sodiq bo'lishi, vafodorligi, sotqinlik yo'lini hech qachon tanlamasligini ham saj vositasida ifodalagan. M.: *Lekin Anvar ta'mani, shaytanatni, adovatni* ayniqsa, *xufiyalikni* bilmas, *devonda o'ziga topshirilg'an vazifanigina* ado qilar, *alaxusus mazlumlardodnomasini xong'a eshitdirishka va yaxshi natijalantirishka* tirishar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 431].

Yozuvchi jonzotlarga juft bo'lib yashashi Safiyulloh//Odam Ota [Mirzo Ulug'bek 1994: 16] va Hayotxon//Momo Havvoda meros ekanligini saj usulida juda go'zal bayon qilgan. M.: *...tog'lardag'i ohular, o'rmonlardag'i to'tilar, chamandagi bulbullar ham yolg'iz emas, juft yashaydirlar...* [Abdulla Qodiriy 1994: 476].

Adib zaminimizdagi ko'klam//bahor fasli tarovatiga oshufta bo'lgan holda, ushbu go'zallikka nasriy qofiya, ya'ni saj vositasida izoh bergan. M.: *...yerlar ko'k gilamlar bilan bejalganda, har tarafni binafsha chechaklari bosqanda, qushlar uya qayg'usini chekkanda* biz ham to'y qilarmiz... [Abdulla Qodiriy 1994: 477].

So'z ustasida shoirlik iste'dodi bo'lganligi bois romanlaridagi nazmiy baytlarni ham o'zi bitgan. Asar qahramonlarining ruhiyatini aniq aks ettirishda ham saj usulidan foydalangan. M.: *Oyu yillar yiglag'an, bag'rin har dam tig'lag'an. Hasratidan big'lag'an* (hushsiz yiqilg'an), *baxtsiz bir qiz Nazmidir!* [Abdulla Qodiriy 1994: 500].

Abdulla Qodiriy o'sha davr siyosati qurboni bo'lgan baxtsiz kaniz qizlarning yashash tarzi va ayanchli ahvolini saj vositasida jonli tarzda ochib bergan. M.: *...ularning ovinchog'i — kunduzlari o'yun, kechalari bazm va tunlari uyqu ham tush* edi [Abdulla Qodiriy 1994: 499].

Yozuvchi har doim hukmdorning oldiga borish, unga yuzma-yuz bo'lish qanchalik xavfli ekanligini va ayanchli tugashi mumkinligini ham saj orqali bayon qilgan. M.: — *Xon huzuriga borayotibman, deb o'limni o'yladim, yatim qoladirg'an bolalarimni, men o'lgandan so'ng erga tegadiringan yangangizni o'yladim!* [Abdulla Qodiriy 1994: 523].

Adib mamlakatdagi oddiy xalqning ahvoli, tuzumdagi adolatsiz beklarning asl basharasini qiziqlar kinoyasi orqali ochar ekan, uni ham saj usulida bayon qilgan. M.: *Shohi baxtiyorning xizmatlariga bel bog'lag'an*

*oq salla, ko'k salla, to'ni malla* otalarimizning dillari ham hamisha soqollaridek oq bo'lsin, omin! [Abdulla Qodiriy 1994: 523].

So'z ustasidagi aktyorlik mahorati muqallidlar holatini berishda yana-da yorqin namoyon bo'lgan. Xon o'z saltanatidagi haqiqiy ahvolni bilmagan va uni bo'layotgan nohaqliklardan qiziqlar ogohlantirgan, ushbu holat ham saj usulida berilgan. M.: *Kishi xong'a qarshi turg'an holda sallasini tuzatdi, soqol-murtini siladi, to'nini qoqib, oldini o'radi, so'ngra xotirjam' ruku'ga bordi* [Abdulla Qodiriy 1994: 522].

Abdulla Qodiriy inson ruhiyatiga [So'z mas'uliyati 1986: 283] tegishli hayotiy holatlarni tasvirlashda ham saj usulidan foydalangan. M.: *Kullar ko'kka uchar, cho'g'lar kulga botar, chalalar cho'qqa aylanar* edilar... [Abdulla Qodiriy 1994: 536].

Yozuvchi o'sha davrdagi ayrim adolatli voqelikdan norozi bo'lgan soxta ulamolarning haqiqiy basharasini sajda ochib bergan M.: *Imom qiroatda, Safar bo'zchi somi'lik (tinglash) o'rnig'a — "manovi ketman soqolning afti xunuk, uttasining avzoyi buzuq, domlamning bo'lsa g'urragi bola ochqan* [Abdulla Qodiriy 1994: 541].

Adib tasodifiy uchrashuv tufayli noma'lum pari yigitga oshiq bo'lib, davosiz ishq dardiga yo'liqqan kanizakning chorasiz holatini saj usulida bergan. M.: *Ichimdagi shu o't bilan go'yo men mast bo'lg'anman, boshim shishkan, ko'zim ting'an, yurg'animni-turg'animni bilmayman* [Abdulla Qodiriy 1994: 505].

Abdulla Qodiriy ijod qilgan badiiy matnlarda sajning o'rni nihoyatda muhim bo'lib, bu milliy romanlariga asos qilib olingan manba bilan chambarchas bog'liqdir. So'z ustasi milliy tilning jozibasini, tasvirning ohoriyligini ta'minlash maqsadida romanlarida ushbu vositani qo'llagan. Yozuvchi romanlari uchun tanlagan manba, xalq dostonlaridagi saj usulining milliy romanchilikka ko'chirilishi, adib ijodidagi so'z va tasvir uyg'unligi [Qodiriy Habibulla 1983: 102] uning asarlarini o'qigan kitobxonni hayratga soladi.

Abdulla Qodiriy qo'llagan lingvopoetik vositalardan yana biri **maqol** hisoblanadi. Maqol [Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. 1990: 91] xalq og'zaki ijodidagi eng qadimiy janr bo'lib, uzoq yillar davomida qisqa shaklga kelgan purma'no fikrlardir. Ular har bir milliy tilning asl qatlamini tashkil etadi. Yozuvchi o'z asarlarida o'zbekona turmush tarziga mos tasvirlar berish uchun maqollardan foydalangan.

Yozuvchi o'z qahramoni fe'l-atvoridagi kamchilikni maqol lingvopoetik vositasi orqali izohlagan: M.: *Oyni etak bilan yashirib bo'lmaydir. Maxdumning xasislikka o'xshash holatlari albatta bor edi* [Abdulla Qodiriy 1994: 389].

Adib ayrim shaxslar ruhiyatida uchraydigan qusurni ham maqol lingvopoetik vositasi orqali ifodalagan: M.: *Chunonchi, ushbuning misoli turkiyda ham bor: "Chumchuqdan qo'rqib, tariq ekmagan" deb qo'rqoq kishilarni masxara qiladirlar* [Abdulla Qodiriy 1994: 412].

So'z ustasi o'z qahramonining voqelikka munosabatda orzumandlik xarakterini ham maqol lingvopoetik vositasi bilan yoritgan. M.: — *Habba, — dedi maxdum tamom ochilg'an qiyofatda, — go'daklik lozim emas, jabonat ko'b mazmum (yomon) sufat, "Osilsang ham baland dorg'a osil" maqoli ko'b purhikmat so'z* [Abdulla Qodiriy 1994: 415].

Abdulla Qodiriy ayollarga xos umumiy, bir-birini yaxshi anglash fe'l-atvorni ham maqol lingvopoetik vositasi orqali bayon qilgan. M.: *"Qush tilini qush biladir"* deganlaridek, Nodiraning samimiy arzi bandachiligi Mohlar oyim bilan Nigor kelinning yuklarini ezdi... [Abdulla Qodiriy 1994: 419].

Yozuvchi ba'zi kishilarga tegishli qaysarlikni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: *Sut bilan kirgan — jon bilan chiqar*, maqoli ko' b to'g'ri so'z" deb o'ylar va ensasi qotib, chetka qarar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 464].

Adib ba'zi insonlarga xos imon-e'tiqod va diyonatni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan tasvirlagan. M.: *Yana shu holda matonatini yo'qotmay, "do'sting uchun qon yut"* maqolidagi kabi, ularni qahramonliqda tabrik etdi [Abdulla Qodiriy 1994: 607].

So'z ustasi mas'uliyatni his etadigan odamlarga oid muhim xususiyatni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan bayon qilgan. M.: *Va'da berish oson, lekin uhdasi mashaqqat*; bundan so'ng shuni ham xotirda yaxshi tutingiz [Abdulla Qodiriy 1994: 389].

Abdulla Qodiriy barcha bashariyatga aloqador ruhiy tushkunlik holatini maqol lingvopoetik vositasi orqali izohlagan. M.: *Mol ketti — jon ketti*, ishka ham qo'lim bormaydi [Abdulla Qodiriy 1994: 436].

Yozuvchi vijdonli odamlarga xos bo'lgan o'zbekona bag'rikenglik holatini maqol lingvopoetik vositasi orqali sharhlagan. M.: — *Yovda bo'lsa, tezagi tegar emish*. Anvar o'z bolangiz-da [Abdulla Qodiriy 1994: 415].

Adib din bilan bog'liq adolatni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: — *Ko'bachilikning duosi ko'l bo'lsa yaxshi*, — dedi imom, — ammo bu xizmatka uning ilmi kofiyimi? [Abdulla Qodiriy 1994: 438].

So'z ustasi mo'min-musulmonlarga xos e'tiqodiy xulosani ham maqol lingvopoetik vositasi orqali ifodalagan. M.: — *Yaxshiliq qil, daryog'a tashla, baliq bilmasa, Xoliq bilur*, deganlar [Abdulla Qodiriy 1994: 538].

Abdulla Qodiriy jamiyatdagi muqarrar inqirozning yuz berishi aniqligini ham maqol lingvopoetik vositasi bilan ko'rsatib bergan. M.: *O'chadirg'an charog' yoqin o'chadir*, maqoli kabi Turkiston xonlarida siyrak ko'rilgan bu ma'muriyatparvarlik bizga qolsa shu omillardan tug'ilg'an va bunda samimiy hech narsa yo'q edi [Abdulla Qodiriy 1994: 481].

Yozuvchi jamiyatdagi ayrim insonlarning fe'l-atvoridagi nopoklikni ham maqol lingvopoetik vositasi orqali yoritgan. M.: *Egri to'nkaga — egri to'qmoq*; mirzam xo'b yaxshi ish qilg'anlar-da [Abdulla Qodiriy 1994: 549].

Adib ba'zi ichiqora ulamolar fe'lidagi qabihona o'ch sababli jazolanganligini ham maqol lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: mulla Abdurahmon kabi bir kishining suvg'a tushkan nondek shilqillab qolishig'a: *"Ko'rpangga qarab oyog' uzat, mullavachcha!"* deb o'zicha kulib qo'yar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 540].

So'z ustasi xalq ichidagi faslga tegishli o'zbekona odilona izohni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan bayon qilgan. M.: — Siz ham sovuqqa qotqanlardanmisiz! — deb kuldi Anvar. — *Jon olov — jon er*,

*deпти bir xotin... Gulxan o'tlik yigitning issiq quchog'i emish* [Abdulla Qodiriy 1994: 533].

Abdulla Qodiriy o'zbekona muomala, madaniyat va fikrlashni ham maqol lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: — *Lekin ikki yorti — bir butun bo'lsa ehtimol yaxshi osh qilarmiz...* [Abdulla Qodiriy 1994, 554].

Adib o'z qahramonidagi tamagirlik illatini ham maqol lingvopoetik vositasi orqali ochib bergan. M.: *Hatto ba'zi vaqt ikki og'iz so'z bilan qaytib chiqqan kishidan ham bir narsa undirishka tirishar, "mishiq oftobga tekin chiqmaydir, sizdan aqcha so'rashqa iymanganda, menga bir narsa tashlab ketsangiz, o'zim unga berib qo'yarman* [Abdulla Qodiriy 1994: 509].

Yozuvchi jamiyatda ayrim kishilar uchun oson yumushni anglatishda forsiyga xos maqol lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: — *Ana, xolos. Az karnaychi yak kuf. Men erta unga aytay, huzuringizga boraversin* [Abdulla Qodiriy 1994: 519].

Adib yaratgan ijodiy matnlarda maqolning o'rni juda muhim bo'lib, ushbu holat o'zbekona romanlarning manbasi bilan aloqadordir. So'z ustasi milliy tilning boyligini, so'z boyligimiz asosida mukammal va ohoriy tasvirlar yaratish osonligini ko'rsatish uchun maqolni qo'llagan.

Abdulla Qodiriy ishlatgan lingvopoetik vositalardan yana biri **matal** hisoblanadi. Matal [Berdiyrov 1984: 12] o'zbekona obrazli ifoda bo'lib, xalq og'zaki ijodida juda ko'p ishlatiladi. Yozuvchi romanlarida o'zbekona muomala madaniyatiga xos tasvirlarni yana-da yorqinlashtirish uchun matallarni qo'llagan.

Adib o'sha davrdagi oddiy xalq hayotini yorqin tasavvur etish uchun matal lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: *"Hay etti, huy etti, ikki koski to'y etti"* deganlaridek har ikki to'y ham bir hafta ichida o'tti, Na'imaxonim uyoqqa ketib, Nigorxonim buyoqqa keldi [Abdulla Qodiriy 1994: 387].

So'z ustasi xasis kishilarning yashash tarzini ochiq yoritish uchun matal lingvopoetik vositasini qo'llagan. M.: *Bu to'g'rida xotini harchand rad qilsa ham qoplab shalg'am, yigirma-o'ttuzlab qovoq xarid qilishini qo'ymas — "shalg'am — Bibi Fotimai Zuhраниng duolari barakati, qovoq bo'lsa hazrati Yunusning mo'jizalari"* deb bahosi arzon va lekin xosiyati ko'b bo'lg'an bu mablag'lar bilan oshxonani to'ldira berar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 390].

Abdulla Qodiriy o'sha davr maktab domlari tomonidan iqtisodiy foyda uchun o'ylab topilgan turli marosimlarni ham matal lingvopoetik vositasi orqali ochib bergan. M.: *Panjsanbalik bo'lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa "Qulyog'a quymoq — Ammaga bo'g'irsoq — Yosinga yupqa"* degan gaplar ham bo'lar edi [Abdulla Qodiriy 1994: 391].

Yozuvchi o'zbek musulima ayollarining sabr-toqat bilan peshonaga bitilgan taqdirga ko'nikib yashashini ham matal lingvopoetik vositasi yordamida izohlagan. M.: *"Xotin kishining boshi uy ichining og'ir toshi"* emish... Hozir o'zi qirq yoshqa kirgan bo'lsa, yigirma besh yildan beri shu mumsik er bilan tiriklik qilib keladir [Abdulla Qodiriy 1994: 392].

Adib musulmonlardagi bir-biriga o'zaro hurmat mezonini ham matal lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: — *O'zlaringizni aytishlaringizga qarag'anda, musulmon kishi uchun kina saqlash bir*

*ro'ymolni yuvib qurutqancha ekan, — dedi Safar bo'zchi, — bizlar bo'lsa to'rt kundan beri shaytonni apichlab yuruymiz...* [Abdulla Qodiriy 1994: 462].

Abdulla Qodiriy islom dinida yolg'on taqiqlanganligini, ammo kishilarning orasini kelishtirish uchun ruxsat berilishi ham matal lingvopoetik vositasi yordamida izohlagan. M.: *...ikki joyda yolg'on aytishni ma'qul* degan ekanlar; bittasi — eru xotinning orasida, ikkinchisi — *ikki mo'minni bitirish uchun* [Abdulla Qodiriy 1994: 463].

Yozuvchi xalqning badavlat qatlamiga xos odatlarning iqtisodiy manbayini ham matal lingvopoetik vositasi bilan sharhlagan. M.: *Haram xonimlari bo'lsa yuz tilloliq sarposiz kelmaslar, qizingizg'a cho'ri hadya qilsalar ham ajab emas. Albatta daromadga yarasha buromad, degan gap bor...* [Abdulla Qodiriy 1994: 511].

Adib o'zbeklarda erkak va ayolning belgilangan aniq yumushlarini ham matal lingvopoetik vositasi orqali ko'rsatib bergan. M.: — *Xotin kishining charxi bilan o'chog'ig'a tegma, degan gap to'g'ri emish* [Abdulla Qodiriy 1994: 555].

So'z ustasi tabiat hodisalarini yaxshi bilgan o'zbeklar har bir fasldagi nozik holatlarni xalq og'zaki ijodida aks ettirishganini ham matal lingvopoetik vositasi yordamida izohlagan. M.: *Mahalla bolalari eshikma-eshik yurib — "Barot keldi, bildingizmi, idish-oyoq qildingizmi?" ashulasini aytar edilar* [Abdulla Qodiriy 1994: 584].

Abdulla Qodiriy o'zbek millatining doimo nohaqlikka qarshilik holatini ham matal lingvopoetik vositasi bilan ochib bergan. M.: *Safar bo'zchi ham "payrav" qildi. "Bir qo'chqorning boshi ketkuncha, minglab qo'yni kallasi kesilar emish, deb ayt domlangg'a!" dedi* [Abdulla Qodiriy 1994: 540].

Yozuvchi salbiy xislatli kishilarning o'z manfaati uchun bermalol o'zgalardan foydalanishi mumkinligini ham matal lingvopoetik vositasi orqali yoritgan. M.: — *Kufroni ne'mat, non tepkulik, — dedi maxdum. Anvar yana kulimsidi, ammo jiddiy tus olg'an edi* [Abdulla Qodiriy 1994: 412].

Adib ayrim ustozlarning kelajak uchun manfaatdorlik borasida juda aniq fikrlashini ham matal lingvopoetik vositasi yordamida ochib bergan. M.: *Shu sarpo kiyish voqi'asidan so'ng maxdum Anvarga boshqacha qarab qoldi va ichidan "sen odam bo'lading'an ko'rinasan", deb qo'ydi* [Abdulla Qodiriy 1994: 423].

So'z ustasi ish yuritishda ona tilini ona tili himoyasining muhimligini, bu borada aslida boshqa millatdan bo'lganlarning sustkashligini ham matal lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: *Xudoyor muhr bosish asnosi yozilg'an yorlig' va nomalarni o'qutib eshitar, munshiylarning eshitilmagan arab va fors so'zlari orqaliq to'qug'an yarim turkiy jumlariga aksar vaqt tushunmas: "Enalaring arapqa tekkanmi?" deb mirzo, muftilarni koyir edi* [Abdulla Qodiriy 1994, 429–430].

Abdulla Qodiriy o'sha davrda erksiz mansabdor bo'lish holatini ham matal lingvopoetik vositasi bilan ko'rsatib bergan. M.: *Manim nima uchun bu mansabdan qochqanlig'imning farqig'a bormay, "kufroni ne'mat qilasan, oyig'a falon tillo" deb daf'atan qo'rqqolig'img'a hukm chiqaradir* [Abdulla Qodiriy 1994: 433–434].

Yozuvchi o'zbeklarda sarishtalikka e'tibor berish kerakligini ham matal lingvopoetik vositasi orqali ochib bergan. M.: — *Lo'lining xurjun solg'an yelkasi bo'lsa, — dedi Nozik otlig' bir qiz, — o'zing yig'ishtirib ber, Gulshan opa!* [Abdulla Qodiriy 1994: 498].

Adib o'sha davrda kanizaklikka mahkum kambag'al oila qizlarining ruhiyati va ayanchli ahvolini ham matal lingvopoetik vositasi yordamida izohlagan. M.: — *Albatta, sen aytkancha, meni olmas. Menga it tekkan, men...* [Abdulla Qodiriy 1994: 506].

So'z ustasi ayrim ijtimoiy tabaqalardagi ziqnalik ajdodiy nuqson ekanligini ham matal lingvopoetik vositasidan foydalangan holda ochib bergan. M.: *Chunki bu odam shu o'rtaning eshonlaridan bo'lib, gadoydan xayr kutish ma'nosiz edi* [Abdulla Qodiriy 1994: 510]. Abdulla Qodiriy o'zbeklardagi yaxshi ovqatlangan kishi unumli va samarali mehnat qila olish ta'birini ham matal lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: — *Oshni sust yegan kishi, ham sust bo'ladir. — Bo'lmasa, oshni "a'lo" yeyish kerak ekan-da...* [Abdulla Qodiriy 1994: 517].

Yozuvchi mansabdor ulamolar orasidagi bir-birini ko'ra olmaslik kabi illatlarni ham matal lingvopoetik vositasi orqali yoritgan. M.: — *Kuygan-pishkan, menga "arz" qildi: mulla Abdurahmonning bir do'stidan eshitkan emish, go'yo mulla Abdurahmon biravga "mirzo Anvarning tegiga yaqinda suv keladi" degan emish...* [Abdulla Qodiriy 1994: 538].

Adib o'z qahramonining ishlash mezonini ochib berishda forscha matal lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: — *Bu kungi oshing durust, Nigor... Biroq go'shtni ko'b solibsan. Nigor oyim kulimsib Anvarga qaradi: — Go'sht ko'b bo'lsa osh o'xshaladir. — Xayrul-umuri avsatuho (har ishning o'rtasi yaxshidir, yoki: ishda e'tidol yaxshi), Nigor* [Abdulla Qodiriy 1994: 515].

So'z ustasi o'zi tasvirlagan voqelikni yana-da ta'sirli shaklga keltirish, fikrlarni ishonchli asos bilan ta'minlash maqsadida matal lingvopoetik vositasidan ishlatgan.

Abdulla Qodiriy ishlatgan lingvopoetik vositalardan yana biri **qo'shiq** hisoblanadi. O'zbek lirik qo'shiqlari ba'zan aytishuv, savol-javob shaklida [Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O., 1990: 160] ham ijod qilingan. Bunda qahramonlar o'zlarining asl maqsadini qo'shiq orqali bayon qiladilar. Yozuvchi o'z qahramonlarining nikoh to'yiga ishorasini qo'shiq lingvopoetik vositasida yuzaga chiqargan. M.:

*Anvar: Nag'ma unlari, Bahor kunlari, Ishrat tunlari, Yetarmi, Ra'no?*  
*Ra'no: Kecha-kunduzlar, Qizardi yuzlar, Uyatli so'zlar Bitarmi, mirzo?*  
*Ra'no: O'choq boshidan, Do'sti qoshidan. — Qarab Roshidan Ketarmi, mirzo?*  
*Ra'no: Manglayin qashib, Mendan ham oshib, Javobim shoshib Etarmi, mirzo?*  
*Anvar: Nozmidir, ha? Bilmadim, ayo, Go'zal, dilbaro...*

[Abdulla Qodiriy 1994: 555–556].

Adib o'z qahramonlarining muhabbat mojarosini yoritishda o'zbek mumtoz adabiyoti namunasi bo'lgan ashula uslubidan ham foydalangan. Oshiq va ma'shuq o'rtasidagi bahr-u baytni qo'shiq lingvopoetik vositasi orqali ko'rsatgan. M.:

Anvar: Agar **Farhodning Shirin**, bo'lsa **Majnunlarning Laylosi**,  
*Nasib o'lmish menga gulshan aro gullarning "Ra'no"si*  
 [Abdulla Qodiriy 1994: 472].

Ra'no: Agar or etsa Layli haqlidir **Qaysning jununidin**,  
*Ne baxt, Ra'no xaridoring talab ahlining "Mirzo"si* [Abdulla  
 Qodiriy 1994: 472].

Anvar: *Hamisha xavfda ko'nglim bu muhabbat intihosidin*,  
*Meni ham etmasa majnun debon Ra'noning savdosi*  
 [Abdulla Qodiriy 1994: 472].

Ra'no: *Muhabbat jomidin no'sh aylagan ahli zako bo'lmish*,  
*Fununi tibda majnundir kishining kuysa safrosi* [Abdulla  
 Qodiriy 1994: 473].

Abdulla Qodiriy ishlatgan lingvopoetik vositalardan yana biri **askiya** hisoblanadi. Askiya hoziravoblar musobaqasi ekan, so'zga chechanlik uning mahorati sanaladi [Imomov, Mirzayev, Sarimsoqov & Safarov 1990: 280]. O'zbek xalqi so'z o'yinini yaxshi ko'radigan, gap borasida birovga yutqazishni yoqtirmaydigan qavm sanaladi. Yozuvchi o'z asarining muqaddimasida shunday yozgan: "*Shu ikki sinf (xalq va hukmdorlar) kurashini tasvir qilish vositasida xon harami, xotinlari, qirq qizlar, tarixiy va etno'g'rofiy lavhalar, o'zbek hayoti, qiziqchiligi, tanqidchiligi, o'zbek xotin-qizlari orasida iste'dod, shoiralar, azkiyachilik va boshqa yana ko'p nuqtalar qamrab olindi*" [Abdulla Qodiriy 1994: 381]. O'zbeklarning kundalik hayot tarzini ko'rsatish uchun, albatta, askiya va so'z o'yiniga murojaat qilishga to'g'ri keladi. Adib roman voqealarini yoritir ekan, askiya lingvopoetik vositasidan unumli foydalangan.

So'z ustasi o'z qahramonidagi insoniy qusur hisoblangan xasislikni kitobxonga yana-da yorqin, bo'rttirib ko'rsatish uchun askiya lingvopoetik vositasini qo'llagan. M.: *Bu kunda bo'lsa to'rt yil burung'i g'usli, yetti yillik tusi, turlik-turlik yamog'i* bilan sakkizinchi qish maxdum pochchasig'a sodiqona xizmat qilish uchun bo'g'joma ichida o'ziga kuch yig'ib yotadir. Mahalla kishilari maxdumning bu choponig'a "**moltopar**" deb ism berganlar, guppi kiyilib chiqilg'an kun maxdumga sezdirmay "**moltopar savdodan qaytibti... hali baquvvat, ish qilib yamoqqa charchamasang yana o'n yillingmi, Mamarayim!**" deb kulishadirlar [Abdulla Qodiriy 1994: 389].

Abdulla Qodiriy o'sha davr ulamolari hayotidagi ayrim tamagirligini orttirib ko'rsatishni ham askiya lingvopoetik vositasi orqali bayon qilgan. M.: *Panjshanbalik bo'lsa maktabning asos haqqi va bulardan boshqa "Qulyog'a quymoq — Ammaga bo'g'irsoq — Yosinga yupqa"* degan gaplar ham bo'lar edi. Bolalar har yili bir marta "**buryo puli**" va oyig'a bir necha bor "**supurgi puli**" ham to'lab turar edilar [Abdulla Qodiriy 1994: 391].

Yozuvchi o'zbek qizlaridagi she'riyatni tushunish va xasislikdan hazar qilish kabi yuksak xislatlarni ko'rsatishda ham askiya lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: *Yog'lar to'kilsa yerga yotib yalar* taqsirim, *Bo'lsa bozorda pastlik* sotib olar taqsirim. Menim uchun bir **zirak**, *Ra'nobonug'a jevak*, *Desa oyim — "Ne kerak?!" yumma talar* taqsirim. "*Quloq teshish fazl emas, pulni topish hazl emas, Jevak taqish farz emas!*" **g'avg'o solar** taqsirim [Abdulla Qodiriy 1994: 397].

Adib ijtimoiy hayotda ayrim o'sha millatga mansub bo'lmagan ulamo qatlamlariga xos ichiqoralik, ko'ra olmaslik kabi illatlarni ham askiya lingvopoetik vositasi bilan yoritgan. M.: *Safar bo'zchi mulla Abdurahmonning tilagiga qarshi yana so'zlab ketdi: — Yaxshiliqqa kelganda — yaxshi, biroq taqsirimning tole'lari bir oz pastlik qilib turadi. Bo'lmasa mudarrislik, muftilik, mirzolik — bularning bariga ham taqsirim yetuk... Faqat tole' past-da, bek bobo. Mana endi mirzam otaliq qilib, o'rdadan birar ish topib bersalar, taqsirimg'a ham oftob tegsa ajab emas. O'zlari ham bir haftadan beri mirzamning haqlarig'a duoda edilar... a, taqsir, shunday emasmi?* [Abdulla Qodiriy 1994: 460]

So'z ustasi ijtimoiy hayotdagi oddiy insonlardagi aqli zukkolikni ham askiya lingvopoetik vositasi yordamida ochib bergan. M.: *Zinaning ikkinchi boshida turg'an Darvesh udaychi Zokir-govga tanbih berdi: — Kimning huzurida turg'anlig'ingizni unutmang! Zokir-gov qo'li qovushtirilg'an holda, gavdasini qimirlatmay yonidag'i udaychiga qaradi: — O'zim ham bilib turibman, bu yerda ahmoq bor, deb o'ylaysanmi? — Xo'sh? — Xonimg'a arzim bor! Yana gurr etkan kulgi bog'ni tutib ketdi (Bundagi kulgiga sabab "xonimg'a" so'zidir. Chunki bizda "xonim" deb xotin kishiga aytiladir (muallif) [Abdulla Qodiriy 1994: 522].*

Abdulla Qodiriy oddiy insonlarning hukmdor huzurida o'z maqsadini to'g'ri bayon qilish mashaqqatini ham askiya lingvopoetik vositasida kitobxonga yetkaza olgan. M.: *Udaychi: — Arzing bo'lsa, dodras (olampanoh, xon) huzuridasan, gapur! — Arzimni o'ylab turippan-da, o'ylag'ali ham qo'ymaysanmi? — dedi Zokir-gov. — Yoki men ham so'zimdanda yanglishib Jabbor jinnidek osilib ketaymi?* [Abdulla Qodiriy 1994: 522]

Yozuvchi ijtimoiy hayotdagi sansalorlik illatining mohiyatini ochib berish ham askiya lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: — *Arzga kelib turg'aningg'a bir osh pishar vaqt bo'ldi! — Men ham arzimni miyamda pishirib olayotibman-da; pishmag'an osh ich og'ritadimi-a, taqsirlar?* [Abdulla Qodiriy 1994: 522]

Adib ijtimoiy hayotdagi kamchiliklarni hukmdor huzurida ochiq aytish xavfini ham kitobxonga askiya lingvopoetik vositasi orqali tushuntirgan. M.: — *Arzingni yo'lda o'ylab kelmabsan-da! — Ey, devonami bu o'zi! — dedi Zokir-gov. — yo'lda o'ylash uchun bundan boshqa kasal yo'qmi? — Yo'lda nimani o'ylading? — Xon huzuriga borayotibman, deb o'limni o'yladim, yatim qoladig'an bolalarimni, men o'lgandan so'ng erga tegadigan yangangizni o'yladim!* [Abdulla Qodiriy 1994: 523]

So'z ustasi ijtimoiy hayotda xalq bilan hukmron tabaqa o'rtasidagi adolatsizlikni ham askiya lingvopoetik vositasi yordamida bayon qilgan. M.: — *Janobni va shu qadar ra'iyatni ma'tal (kutmoq) qo'yma! — Xe-xe-xe! — deb kuldi Zokir-gov. — Sizlar har kun minglab kishini o'rda tegida ma'tal qo'yg'anlaringizda, men bir nafas ma'tal qo'ysam, xe-xe-xe!..* [Abdulla Qodiriy 1994: 523]

Abdulla Qodiriy ishlatgan lingvopoetik vositalardan yana biri **alqishlar** [Lafasov 1996: 17] hisoblanadi. Alqishlar kishilarga ezgu niyatlar tilash, ularning ruhini ko'tarish va yaxshilik sari da'vat etishdir [Imomov, Mirzayev, Sarimsoqov & Safarov 1990: 109]. Yozuvchi o'z

asarlarining xalqchilligini ta'minlash uchun oddiy turmushda ko'p qo'llanadigan alqishlardan o'rinli foydalangan.

Adib kundalik turmushda oddiy musulmonlarning shukronasini ham alqish lingvopoetik vositasi orqali bergan. M.: — *Tuzukmisiz, ota? — Xudoga shukur*, — dedi Hasanali, — *boyag'idan bir oz yengilladim* [Abdulla Qodiriy 1994: 8].

So'z ustasi o'zbeklarning mustahkam e'tiqodli ruhiy musulmon ekanligini ko'rsatish uchun ham alqish lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: — *Bekka xudo umr bersa, bu yil hamduna bo'lsa to'ppa-to'g'ri yigirma to'rt yoshga qadam qo'yadilar* [Abdulla Qodiriy 1994: 10].

Abdulla Qodiriy o'zbeklarda yoshi ulug' kishilar aqlli yoshlarni rag'batlantirishi farz ekanligini ham alqish lingvopoetik vositasi bilan izohlagan. M.: — *Umri uzoq bo'lsin*, — dedi Akram hoji, — *yigitlarimiz ichida eng aqllig'i ekan...* [Abdulla Qodiriy 1994: 20].

Yozuvchi boshqa xalqlar qatori o'zbeklarda ham uchraydigan ayrim irim-sirimga aloqador yaxshi odatni ham alqish lingvopoetik vositasi orqali bayon qilgan. M.: — *Oftob, darrav isiriq hozirla, kuyavingni yomon ko'zdan o'zi asrasin!* dedi [Abdulla Qodiriy 1994: 58].

Adib o'z qahramonining yaxshilik haqidagi ezgu niyatini ham alqish lingvopoetik vositasi orqali ifodalagan. M.: *Xudo xohlasa, men Toshkanddan qaytquncha ular ham zindondan qutilurlar* [Abdulla Qodiriy 1994: 77].

So'z ustasi bu dunyoda inson umridan aziz narsa yo'q ekanligini e'tirof etish uchun ham alqish lingvopoetik vositasini qo'llagan. M.: — *Xudo rizosi uchun tezroq. Yo'qsa... ikki gunohsizning qonlarig'a botarsiz!* [Abdulla Qodiriy 1994: 96].

Abdulla Qodiriy o'zbeklarga xos odillik, jufti halolini hurmat qilish kabi xislatlarni ham alqish lingvopoetik vositasi orqali sharhlagan. M.: — *Kuyavingizning rizolig'i bo'lmasa xudo xayrini bersin, vassalom* [Abdulla Qodiriy 1994: 145].

Yozuvchi insonlardagi odatiy tilakni aniq ko'rsatish uchun alqish lingvopoetik vositasini ishlatgan. M.: — *Xudoy saqlasin, xudoy saqlasin*, — dedi xotin, — *qix... bevaqt kelib sizlarni yo'ldan to'xtatdimmi... xayr, xudo singlimni yomon ko'zdan asrasin*, — deb fотиha o'qudi [Abdulla Qodiriy 1994: 173].

Adib e'tiqodi mustahkam bo'lgan o'zbeklarda Allohga hamd aytish oddiy holat ekanligini ham alqish lingvopoetik vositasi orqali yuzaga chiqargan. M.: — *Xudoyimdan o'rgulayki*, — dedi Kumush entikib va dahshatlanib, — *yomonlarning jazasini o'zi bergan* [Abdulla Qodiriy 1994: 256].

So'z ustasi o'zbeklarda har bir musibat, holat Yaratganning izmi ekanligini tan olishni ham alqish lingvopoetik vositasi orqali tushuntirgan. M.: ...*bu kun nikoh deganimizda Komilbekni hammomda o'ldirib ketdilar (Kumushbibi yuzida bir yengillik ko'rildi), kecha uyimiz orqasida bir emas, uch kishi o'ldirildilar. Xudo oxirini baxayr qilsin endi...* [Abdulla Qodiriy 1994: 256–257].

Abdulla Qodiriy barcha dinlarda odamlarga yaxshilik qilish ilk asosiy mezon ekanligini ta'kidlash uchun ham alqish lingvopoetik vositasidan foydalangan. M.: *Bizga muncha yaxshiliq qilgan kishi kim bo'lsa ham xudo ajrini bersin!* — dedi [Abdulla Qodiriy 1994: 257].

Yozuvchi o'zbeklardagi oilasining sha'nini himoya qilish borasida o'limdan ham qaytmaslik holatini ham alqish lingvopoetik vositasi bilan ifodalagan. M.: ...ammo *Otabekning favqulodda yuragini so'z orasida "baraka topkur, umring uzoq bo'lg'ur"* bilan qarshi olar edilar [Abdulla Qodiriy 1994: 266].

Adib kishilar orasidagi kundalik davra suhbatlaridagi oddiy tilaklarni ham alqish lingvopoetik vositasi orqali bergan. M.: — *Xudo yosh bersin, — dedi Shahidbek, — mirzoni o'zlariga domod qilsalar ham bo'lar ekan, xrrr?* [Abdulla Qodiriy 1994: 407].

So'z ustasi o'zbeklarda ustozlarni, vafot etgan kishilarni eslaganda doimo yaxshi gap aytish joizligini ham alqish lingvopoetik vositasi bilan sharhlagan. M.: *Buni xudo rahmati domlam o'qub berar edilar* [Abdulla Qodiriy: 1994: 463].

Abdulla Qodiriy do'stlarga ezgulik istagan yaxshi insonlarning jonbozligini ham alqish lingvopoetik vositasi orqali izohlagan. M.: *Gapka tushungan chiqarsiz, Safar aka. — Tushundim, sadag'ang ketay, taqsir* [Abdulla Qodiriy 1994: 552].

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, Abdulla Qodiriy asarlarida mumtoz ona tilimizning boy imkoniyatlarini ko'rsatib berish uchun o'zbek xalq og'zaki ijodiga murojaat qilgan holda, folklorga xos lingvopoetik vositalardan unumli foydalangan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- Lafasov U.P. Okuzbeks, Their Language, Place in Society and Culture.// Imgelem. Sayı: Özbekistan Özel Sayısı. Eylül, 2024. — P. 293–310.
- Qodiriy Xondamir. Abdulla Qodiriy (ta'rifi adib). — Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi, 2004. — 129.
- Имомов К., Мирзаев Т., Саримсоқов Б., Сафаров О. Ўзбек халқ оғзаки ижоди. — Тошкент: Ўқитувчи, 1990. — 303 б.
- Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. — Тошкент: Зарқалам, 2006. — 127 б.
- Қодирий Ҳабибулла. Отам ҳақида. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. — 224 б.
- Қодирий Ҳабибулла. Отамдан хотира. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. — 414 б.
- Қўшжонов М. Қодирий — эркисизлик қурбони. — Тошкент: Фан, 1992. — 96 б.
- Лафасов У.П. Абдулла Қодирий романларидаги саж ва гул билан боғлиқ тасвирлар.// “XXI аср: фан ва таълим масалалари” илмий электрон журнали, — 2021. — №4. — Б. 1–12
- Лафасов У.П. Диалогик нутқда субъектив модалликнинг ифодаланиши: Филол.фан.ном. ...дисс.автореф. — Тошкент: Фан, 1996. — 26 б.
- Мирзаев Иброҳим. Абдулла Қодирий. — Тошкент: Фан, 1975. — 68 б.
- Поливанов Е.Д. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. — Ташкент, 1933. — 112 б.
- Раҳимжонов Н. Асқад Мухтор поэтикаси. — Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги матбаа ижодий уйи, 2003. — 71 б.
- Собиров О. Сарчашма адиб ижоди. — Тошкент: Фан, 1975. — 67 б.

Сўз масъулияти (адабий-танқидий мақолалар тўплами). — Тошкент: Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1986. — 286 б.

### Manbalar va lugʻatlar

- Асотирлар ва ривоятлар.// Тўплаб, нашрга тайёрловчилар М.Муродов ва М.Шайхова. — Тошкент: Ёш гвардия, 1990. — 129 б.
- Бердиёров Х., Расулов Р. Ўзбек тилининг паремиологик луғати. — Тошкент: Ўқитувчи, 1984. — 287 б.
- Қодирий Абдулла. Ўткан кунлар. Меҳробдан чаён (рўмонлар). — Тошкент: Гафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991. — 654 б.
- Мирзо Улуғбек. Тўрт улус тарихи. — Тошкент: Чўлпон, 1994. — 351 б.
- Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. Учинчи жилд. — Тошкент: ЎЗМЭ, 2007. — 687 б.
- Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар. IV жилд. — Тошкент: Маънавият, 2006. — 333 б.
- Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. — Тошкент: ЎЗМЭ, 2002. — 165 б.

### References

- Lafasov, U. P. (2024). *Okuzbeks, their language, place in society and culture* (Uzbekistan Special Issue), September, 293-310. Doi: 10.53791/imgelem.1470929
- Kodiriy KHondamir. (2004). *Abdulla Kodiriy (ta'rifi adib)*. (Abdulla Kodiriy: Description of a Writer). Tashkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi.
- Imomov, K., Mirzayev, T., Sarimsoqov, B., & Safarov, O. (1990). *Uzbek xalq ogzaki ijodi* (Uzbek Folk Oral Literature). Tashkent: Uqituvchi.
- Is'hoqov, Yo. (2006). *Suz san'ati suzligi*. (Dictionary of the Art of Words), Tashkent: Zarqalam.
- Kodiriy, H. (1983). *Otam haqida* (About My Father), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Kodiriy, H. (2005). *Otamdan xotira* (Memories of My Father), Tashkent: Yangi asr avlodi.
- Kushjonov, M. (1992). *Qodiriy — erksizlik qurboni* (Qodiriy — Victim of Oppression). Tashkent: Fan.
- Lafasov, U. P. (2021). *Abdulla Kodiriy romanlaridagi saj va gul bilan bogliq tasvirlar*. (Depictions of Saj and Gul in Abdulla Kodiriy's Novels), No. 4 (4).
- Lafasov, U. P. (1996). *Dialogik nutqda subyektiv modal'likning ifodalanishi: Filol. fan. nom. diss. avtoref.* (Expression of Subjective Modality in Dialogic Speech: Extended abstract of candidate's thesis), Tashkent: Fan.
- Mirzayev, I. (1975). *Abdulla Kodiriy*. (Abdulla Kodiriy), Tashkent: Fan.
- Polivanov, Ye. D. (1933). *Uzbekskaya dialektologiya i uzbekskiy literaturnyy yazyk*. (Uzbek Dialectology and the Uzbek Literary Language), Tashkent.

- Rahimjonov, N. (2003). *Asqad Muxtor poetikasi*. (Poetics of Asqad Muxtor), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Matbaa ijodiy uyi.
- Sobirov, O. (1975). *Sarchashma adib ijodi*. (The Creative Work of the Source Writer), Tashkent: Fan.
- Suz mas'uliyati (adabiy-tanqidiy maqolalar tuplami)* (1986). (Responsibility of Words: A Collection of Literary-Critical Articles), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.

### Sources and dictionaries

- Asotirlar va rivoyatlar* (Legends and Stories) (1990), Editor: M. Murodov & M. Shaykhova. Tashkent: Yosh gvardiya.
- Berdiyev, X., & Rasulov, R. (1984). *Uzbek tilining paremiologik lugati* (Paremiological Dictionary of the Uzbek Language), Tashkent: Uqituvchi.
- Kodiriy, A. (1991). *Utkan kunlar. Mehrobdan chayon (romans)*. (Bygone Days. Scorpion from the Pulpit [Novels]), Tashkent: Gafur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti.
- Mirzo Ulugbek. (1994). *Turt ulus tarixi*. (History of the Four Uluses), Tashkent: Chulpon.
- Uzbek tilining izohli lugati* (2007). 5 jildli. Uchinchi jild. (Explanatory Dictionary of the Uzbek Language, Vol. 3). Tashkent: UzME.
- Fitrat, A. (2006). *Tanlangan asarlar. IV jild*. (Selected Works, Vol. 4). Tashkent: Ma'naviyat.
- Hojiev, A. (2002). *Tilshunoslik terminlarining izohli lugati*. (Explanatory Dictionary of Linguistic Terms), Tashkent: UzME.